

ISAJON SULTONNING “QISMAT” HIKOYASIDA INSON QISMATI VA RUHIY POKLANISH FALSAFASI

Egamova Zebo Farhod qizi

Qarshi davlat universiteti ilmiy tadqiqotchisi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.01.2026

Revised: 21.01.2026

Accepted: 22.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Isajon Sulton,
“Qismat”, taqdir,
ruhiyat, kechirim,
falsafa, ramz, tilla
baliq.*

Ushbu maqola Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasi misolida uning inson taqdiri, ruhiy azob, gunoh va kechirim mavzularining falsafiy-badiiy talqinini chuqur tahlil qiladi. Tahlil jarayonida hikoyaning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan tarbiyaviy maqsadlari, ruhiy poklanish yo'li, avlodlar gunohi va qismat oldidagi mas'uliyat kabi masalalarni ilgari surishi yoritiladi. Maqolada Isajon Sulton hikoyasining bugungi kun yoshlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi o'rni va dolzarbligi asoslab beriladi.

Bugungi o'zbek adabiyoti milliy an'analarni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirish yo'lida yuksak bosqichga ko'tarilmoqda. Shu jarayonda o'zining o'zgacha fikrlash tarzi, o'zbek ruhini chuqur his etgan tili va badiiy mahorati bilan ajralib turgan ijodkorlardan biri — Isajon Sulton. Uning ijodi o'zbek nasrining yangi davrga, mustaqillik ruhiga xos o'zgarishlarini yaqqol namoyon etadi. Uning asarlari bevosita tarbiya va ma'rifatga xizmat qilishni maqsad qilgan bo'lib, o'zbek xalqining hayot tarzi, urf-odatlar, orzu-armonlari bilan bir qatorda, bugungi insonni qiynayotgan ruhiy iztiroblar, hayotiy ziddiyatlar badiiy ifodasi kabi muhim vazifalarni zimmasiga olgan.

Isajon Sulton nasrining falsafiy mohiyatini tahlil qilishda uning “Qismat” hikoyasi matni asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu hikoya insonning o'z taqdiriga munosabati, gunoh va kechirim, ruhiy poklanish g'oyasini badiiy shaklda ifodalashga qaratilgan.

Hikoyada voqealar bir oilaning bir necha avlodlari-kichik o'g'il, o'rtancha o'g'il, katta o'g'il, ota va kampir nigohi orqali bayon qilinadi. Asarni birlashtirib turuvchi markaziy timsol-tilla baliq. U butun asar davomida taqdir, gunoh va poklanish ramziga aylanadi.

Har bir obraz o'z hayotidagi voqealarga boshqacha yondashadi. Xususan, tilla baliq :

- Kichik o'g'il uchun -mo'jiza va poklik ramzi
- O'rtancha o'g'il uchun- otaning ruhi, najot umidi
- Katta o'g'il uchun- o'ch olish vositasi
- Ota uchun- gunohi uchun jazo va tavba yo'li

- Kampir(ona) uchun esa- kechirim va mehr manbai.

Muallif shu tarzda har bir inson o'z qismatini o'zi yaratishini, lekin uni qanday qabul qilishi uning ma'naviy darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Asarda bir qancha ramziy obrazlar mavjud. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tilla baliq-asarning markaziy timsoli. U suvda yashaydi, suv esa tozalik va ruhiy yangilanish ramzi hisoblanadi. Ota o'z gunohi sabab baliqqa aylanishi uning jazosi ham, ruhiy tozalanish imkoniyati hamdir. Baliqning suvdan chiqishi va o'ldirilishi esa insonning kechirilmagan gunohini ifodalaydi.

Qamish la'nat va tovon ramzi sifatida ifodalanadi. Ota "ming yillardan beri qamish o'raman...ming yillardan beri adog'i yo'q qamishzor. Shu qamishzorni o'rib tugatsam, nimadir ro'y beradi. Ishqilib, o'rib tugatolsam bas,"[1] deydi. Bu esa abadiy jazo, ya'ni ruhiy poklanish jarayonining tugamasligini bildiradi. Asarda qamishzor nafaqat tabiat manzili sifatida, balki insonning o'z "gunohlar botqog'"ida mehnat qilayotgani timsoli tarzida yoritiladi.

Olov asarda qasos va azob ramzini ifodalab kelgan. Katta o'g'il baliqni qovurarkan, "Ana, endi bo'ldi! ...Ana endi qozonda jizillab kuyyapsan, ota. Do'zaxda shunaqa kuyishingni orzu qilgan edim. Xudoyi taolo shunga belgi qilib seni jo'natdi, jo'natganda ham olovda qovuriladigan qilib jo'natdi. Jizilla, endi do'zaxda kuyyapsan...Enamni urganlaringda qo'lingga yopishganlarim esingdami? Ichib kelib hammani tumtaraqay qilganlaringda-chi? Menga ketmon otganingda yelkamni o'pirib yuboruvding, izi haliyam bor, haliyam qoni silqib turibdi, yelkamda emas, ichkarida, yuragimda!" [2] deydi. Bu olov tashqi jazodan ko'ra ichki yonish, ya'ni alam, nafrat va og'riqni ifodalaydi. Yozuvchi olov timsoli orqali inson qalbidagi azobni ko'rsatadi: gunohga qasos bilan emas, kechirim bilan yondashilmaguncha, bu olov so'nmaydi.

Asardagi avlodlar zanjiri va gunoh merosi haqida to'xtalib o'tish joizdir. Asarda ota avlodining la'nati keyingi avlodlarga o'tadi. Asarda bu kampirning "Ekin-tikin ekaman, dehqonchilik qilaman deb ko'p urindi, biroq, ekkan ko'chatlari unmasdi, ko'karib chiqardi-yu joyida qurib qolaverardi. Sababi, otasiga qo'l ko'targan edi-da. Endi, bir paytlar ...kattalarning otalari namoz o'qimasin degan buyruq bo'lganida, ota undan berkitiqcha machitga chiqqan ekan. Aksiga olib, o'sha kuni qanaqadir bayram edi, ichib olgan edi, kelib otasiga "men qamalib ketaymi" deb o'shqirgan, siltab-siltab tashlagan, ota yiqilganida qamish bo'yraning cho'pi ko'ziga kirib ketgan, shunda "qamishday qurigin iloyo" deb qarg'agandi..."[3] nutqi orqali anglashiladi. Shundan so'ng uning hayoti, oilasi, hatto farzandlari ham bu og'ir qismatning davomiga aylanadi. Bu orqali yozuvchi "avlod karmasi", ya'ni gunohning meros bo'lishi haqidagi falsafiy g'oyani ilgari suradi. Har bir o'g'il o'zicha haqli, ammo baribir har biri xato qiladi. Bu esa inson hayotining murakkab, nisbiy tabiatini ifodalaydi.

Asarda taqdir insondan tashqaridagi sirli kuch emas, balki insonning o'z tanlovlari, xatti-harakatlari va ichki qarorlaridan shakllanuvchi jarayon sifatida talqin qilinadi. Muallif shunday g'oyani ilgari suradi: inson o'z qismatiga faqat taslim bo'lmashligi, balki uni ongli ravishda anglab, mas'uliyat bilan yashashi zarur. Shu orqali Isajon Sulton "qismat" tushunchasini passiv falsafiy tushuncha emas, balki inson ruhiy taraqqiyotining faol unsuri sifatida ko'rsatadi.

Hikoyaning kompozitsiyasi turli obrazlar nuqtai nazaridan yoritilishi bilan ahamiyatlidir. Har bir qahramon bir xil voqeaga turlicha munosabat bildiradi. Bu usul orqali yozuvchi inson tabiatining ko'p qirrali va ziddiyatli mohiyatini ochadi. Kichik o'g'il – poklik, o'rtancha o'g'il – e'tiqod, katta o'g'il esa – nafrat va alam timsolidir. Ularning har biri bir xil taqdir sinovini boshdan kechirsa-da, natija turlicha bo'ladi. Bu holat insonning ichki dunyosi qismatni belgilashda asosiy omil ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, "Qismat" hikoyasi o'zbek adabiyotida psixologik tahlil, falsafiy ramz va ruhiy introspeksiyaning yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi. Yozuvchi inson hayotidagi azob, og'riq, tavba va kechirimni bir butun ruhiy tajriba sifatida tasvirlaydi.

Isajon Sultonning "Qismat" hikoyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'p ovozli kompozitsiyadan va metaforalardan foydalanilgan holda, o'quvchida ramziy fikrlashni uyg'otadi. Hikoya o'quvchini tafakkur, hayotiy mas'uliyat va o'zlikni anglashga, shuningdek, sabr, kechirim, mehr va vijdonning haqiqiy insoniy fazilat ekanini o'rgatadi. Hikoya jamiyatda oila, mehr, avlodlar birligi va mas'uliyat g'oyasini targ'ib qiladi.

"Qismat" hikoyasini o'qitish orqali yoshlarda inson o'z qarorlari va xatti-harakatlariga jiddiy yondashish, o'quvchini nafaqat o'ylash, balki amal qilish, ya'ni hayotini to'g'ri yo'nalishga solish, inson o'z oilasida, jamiyatda mehrli, e'tiborli va adolatli bo'lish ko'nikmalari shakllantirilgan.

Bugungi kunda ham Isajon Sulton hikoyalarini maktab va oliy o'quv yurtlarida o'rganish, uning falsafiy g'oyalarini keng jamoatga targ'ib qilish amaliy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda.

Isajon Sultonning yuqorida tahlil qilingan "Qismat" hikoyasi uning adabiy merosining falsafiy jihatdan naqadar yuqori ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Isajon Sultonning nasri shunchaki hikoya emas, balki inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib beruvchi falsafiy asar bo'lib, u to'g'ridan to'g'ri o'quvchi ongiga ta'sir etishni maqsad qilgan.

Isajon Sultonning "Qismat" hikoyasi bu shunchaki bir oilaning fojeasi emas, bu insoniyatning azaliy savollariga javob izlashidir. Har bir satrda "inson nima uchun azob chekadi?", "taqdir sinovidan o'tib bo'ladimi?", "kechirim najotmi yoki zaiflikmi?" degan abadiy savollar aks-sado beradi. Yozuvchi shu savollar orqali o'quvchini o'z vijdoni, o'z ruhining tubiga nazar tashlashga chorlaydi.

Asardagi har bir obraz inson qalbining bir bo'lagi. Ota — gunohning og'rig'ini ko'tarib yashayotgan vijdon, kampir — sabrning jilosi, o'g'illar esa inson ruhining turli holatlari:

=====

biri mehrli, biri ishonchli, biri esa nafratga to'la. Ularning har biri o'z qismatini yashaydi, lekin bu qisimatlarning ildizi bitta — kechirilmagan og'riq. Shu bois hikoyani o'qir ekanmiz, har birimiz o'z hayotimizdan bir parcha topamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isajon Sulton. Qismat (hikoya). – Elektron nashr: t.me/e_kutubxona
2. Karimov N. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Mamajonov I. O'zbek nasrida ruhiy tahlil tamoyillari. – Qarshi: Nasaf, 2020.
4. Qodirov O. Tasavvuf falsafasi va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
5. Xolbekov A. Isajon Sulton ijodida metaforik tafakkur. – O'zMU ilmiy to'plami, 2022.